

LOYIHA

O'ZBEKISTONDA NOGIRONlar ASSOTSIATSIYASINING TASHABUSI BILAN MANFAATLI
NODAVLAT notijorat TASHKILOTLARI VA XALQARO EKSPERTLARINING ISHTIROKIDA
tayorlangan.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR

KODEKSI

MUNDARIJA

I Bo'lim. UMUMIY QOIDALAR.. 4

I BOB. Asosiy qoidalar. 4

1-modda. Ushbu Kodeksning tartibga solish predmeti va ko'lami 4

2-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari 4

3-modda. Asosiy tushunchalar 4

2 BOB. Nodavlat notijorat tashkilotining huquqiy maqomi, uning huquq va majburiyatlari 5

4-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining huquqiy maqomi 5

5-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining yuridik manzili, nomi va ramzlari 6

6-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining huquqlari 6

7-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining majburiyatlari 7

3 BOB. Nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatining iqtisodiy asoslari 7

8-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining mulki 7

9-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining mol-mulkini shallantirish manbalari 7

10-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining buxgalteriya hisobi va hisoboti 8

II bo'lim. nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish
printsipalari va tartibi. 8

4 BOB. Nodavlat notijorat tashkilotini tuzish printsipalari, maqsadlari va tartibi 8

11-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatish printsipalari 8

12-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini tuzish va faoliyatining maqsadlari 9

13-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari 9

14-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini tuzish tartibi 9

15-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilariga (a'zolariga) qo'yiladigan umumiy talablar 10

5 BOB. Ta'sis hujjatlari 10

16-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlari 10

17-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ustavi 10

18-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlari 11

6 BOB. Jamoat birlashmasi 11

19-modda. Jamoat birlashmasini tashkil etish. 11

20-modda. Jamoat birlashmasining a'zolari 11

7 BOB. Jamoat fondi 12

21-modda. Fondni tashkil etish. 12

22-modda. Fond mol-mulki 12

23-modda. Fondlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan dastlabki mablag'larning eng kam miqdori 12

24-modda. Fond tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish. 13

25-modda. Fondning o'ziga aloqador shaxslar bilan munosabatlar 13

26-modda. Fondning mol-mulkidan foydalanish. 13

27-modda. Fondda hisob yuritish va hisobot 14

28-modda. Fondni boshqarish. 14

29-modda. Vasiylik kengashining vakolatlari 14

30-modda. Fond kengashi 15

31-modda. Fond boshqaruvinining vakolatlari 15

32-modda. Fond faoliyati ustidan nazorat 15

8 BOB. Muassasalar. 16

33-modda. Muassasalar 16

34-modda. Muassasani tashkil etish to'g'risidagi qaror 16

35-modda. Muassasaning boshqaruv organlari 16

9 BOB. Nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish. 16

36-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi 16

37-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar 17

38-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma va ta'sis hujjatlarining dublikatlarini berish tartibi 18

39-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish, shuningdek ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish. 19

40-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish uchun asoslari 20

41-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish. 21

42-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish oqibatlari 21

10 BOB. Nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish va tugatish. 21

43-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish. 21

44-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish. 21

11 BOB. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish. 22

45-modda. Umumiy qoidalar 22

46-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish tartibi 22

47-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar va ularni ko'rib chiqish tartibi 22

48-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish natijalari 23

49-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish va ramzlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning dublikatini berish. 24

50-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish dublikatini berish tartibi 24

51-modda. Davlat bojlarining miqdori 25

III BO'LIM. NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING DAVLAT ORGANLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI. 26

12 BOB. Davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining ta'minlash. 26

52-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlarini ta'minlash. 26

53-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari 26

54-modda. Faoliyat erkinligi kafolatlari 26

55-modda. Axborotdan foydalanish kafolatlari 27

56-modda. Mulk huquqi kafolatlari 27

57-modda. Ishchanlik obro'sini himoya qilish. 27

58-modda. Intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish. 28

59-modda. Davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlaridan, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlaridan (harakatsizligidan) himoya qilish. 28

13 BOB. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlash. 28

60-modda. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari 28

61-modda. Davlat subsidiyasi 29

62-modda. Davlat granti 29

63-modda. Davlat ijtimoiy buyurtmasi 29

14 BOB. Davlat tashkilotlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sherikligi 29

64-modda. Ijtimoiy sheriklik tushunchasi 29

65-modda. Ijtimoiy sheriklikning asosiy printsiplari 30

66-modda. Ijtimoiy sheriklik sohalari 30

67-modda. Davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari 30

68-modda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki 31

15 BOB. Jamoatchilik kengashlari 32

69-modda. Jamoatchilik kengashlarini tuzish. 32

70-modda. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari 32

71-modda. Jamoatchilik kengashlari faoliyatining printsiplari 33

72-modda. Jamoat kengashlarining vakolatlari 33

73-modda. Jamoatchilik kengashining huquqlari 33

74-modda. Jamoatchilik kengashining vazifalari 34

16 BOB. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalari 34

75-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasini va hududiy jamoatchilik palatalarini tuzish 34

76-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasini shakllantirish. 34

77-modda. Hududiy jamoatchilik palatalarini shakllantirish. 35

78-modda. Jamoatchilik palatalarini boshqarish organlari 35

79-modda. Jamoatchilik palatasining asosiy vazifalari 35

80-modda. Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalarining huquq va majburiyatlari 36

81-modda. Jamoatchilik palatasi va hududiy jamoatchilik palatalarining qarori 37

82-modda. Jamoatchilik palatasining davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorligi 37

17 BOB. Jamoatchilik nazorati 38

83-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqi 38

84-modda. Jamoatchilik nazoratining shakllari 38

85-modda. Jamoatchilik nazorati natijalarini ko'rib chiqish majburiyati 38

18 BOB. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tekshirish. 39

86-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini kuzatib borish tartibi 39

I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR

I BOB. Asosiy qoidalar

1-modda. Ushbu Kodeksning tartibga solish predmeti va ko'lami

- 1. Ushbu Kodeks nodavlat notijorat tashkilotlarini, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatadigan xalqaro notijorat tashkilotlarning huquqiy maqomini, tashkil etish, faoliyat ko'rsatish, ro'yxatdan o'tish va tugatish tartibini belgilaydi.**
- 2. Ushbu Kodeks jamoat birlashmalari, fondlar, muassasalar shaklida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlariga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu Kodeks siyosiy partiyalarga, kasaba uyushmalarga, diniy tashkilotlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Ularning maqomi, tuzilish tartibi va faoliyati printsiplari O'zbekiston Respublikasining alohida qonunlari bilan tartibga solinadi.**
- 3. Jismoniy shaxslar va (yoki) yuridik shaxslar birlashishi va yuridik shaxs yaratmasdan ham birgalikda faoliyat olib borishi mumkin. Ushbu Kodeks qoidalari fuqarolarning birlashish huquqini cheklamaydi.**
- 4. Nodavlat notijorat tashkilotlari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan tuzilishi mumkin emas.**

2-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari

- 1. Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Kodeksdan va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.**
- 2. Maxsus qonunlar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati sohasidagi ayrim munosabatlarni tartibga solmagan hollarda ushbu Kodeks normalari qo'llaniladi.**

3. Ushbu Kodeksga zid bo'lgan, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari mavqeini ushbu Kodeksda nazarda tutilganidan yomonlashtiradigan normativ-huquqiy hujjatlar yuridik kuchga ega emas.
4. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalar qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va/yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik va boshqa manfaatlarga erishish, daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqaradigan tashkilot.

Yuridik shaxs - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va o'z nomidan mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Jamoat birlashmalari - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning umumiy manfaatlar asosida qonunlarda belgilangan tartibda birlashadigan ixtiyoriy birlashmalari.

Fond - fuqarolar va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar asosida tuziladigan va ijtimoiy, xayriya, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlovchi nodavlat notijorat tashkiloti.

Muassasa - ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tushdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti bo'lib,

to'liq yoki qisman muassis, shuningdek grantlar va homiylik mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy to'lovlari (xayr-ehsonlari) hisobiga moliyalashtiriladi. Muassasa o'z mol-mulkiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq operativ boshqarish huquqi asosida egalik qiladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ - nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazishga vakolatli davlat organi.

Chet el nodavlat notijorat tashkiloti - chet el davlatining qonunlariga muvofiq tashkil etilgan, asosiy maqsadi foyda olishdan iborat bo'lgan, o'z ustaviga muvofiq O'zbekiston Respublikasi va bir yoki bir nechta xorijiy davlatlar hududlarida faoliyat oboiradigan nodavlat notijorat tashkilotidir.

Chet el nodavlat notijorat tashkilotining vakolatxonasi - bosh tashkiloti O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan, O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy nodavlat notijorat tashkilotining manfaatlarini ifoda etuvchi va himoya qiladigan tashkilot.

Xorijiy nodavlat notijorat tashkilotining filiali - bosh tashkiloti O'zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotining barcha funktsiyalarini (yoki ularning bir qismini), shu jumladan o'z manfaatlarini O'zbekiston Respublikasi hududida ifoda etuvchi va himoya qiladigan tashkilot.

Nodavlat notijorat tashkilotining mulki - har qanday mulk, mulkiy va nomulkiy huquqlar, tadbirkorlik va boshqa faoliyatdan olingan foyda, xayriya tushumlari.

2-bob. Nodavlat notijorat tashkilotining huquqiy maqomi, uning huquq va majburiyatlari

4-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining huquqiy maqomi

Nodavlat notijorat tashkiloti yuridik shaxs bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga muvofiq yuridik shaxs maqomidan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarga ega.

Nodavlat notijorat tashkiloti, agar uning ta'sis hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, faoliyat muddati cheklanmagan holda tuziladi.

5-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining yuridik manzili, nomi va ramzlari

Nodavlat notijorat tashkiloti uning tashkiliy-huquqiy shaklini ko'rsatadigan nomga ega. Nomi belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan tashkilot undan foydalanishning mutlaq huquqiga ega.

Nodavlat notijorat tashkilotining yuridik manzili uning doimiy faoliyat ko'rsatadigan organi joylashgan yerga bog'liq. Yuridik manzil nodavlat notijorat tashkiloti rahbarining yashash joyida joylashgan bo'lishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti uch kun ichida yuridik manzilining o'zgargani to'g'risida ro'yxatdan o'tkazuvchi organga xabar berishi shart.

Birinchi yuridik manzil o'zgarganda nodavlat notijorat tashkilotining ustaviga o'zgartirish kiritish talab qilinmaydi.

6-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining huquqlari

Nodavlat notijorat tashkiloti quyidagi huquqlarga ega:

- maqsadlari va faoliyatini mustaqil ravishda belgilash;
- o'z boshqaruv organlarini, ularning vakolatlarini, tarkibini, shuningdek ular tomonidan qarorlar qabul qilish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi va shakllantiradi;
- jamoat hayotining turli masalalari bo'yicha tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga takliflar kiritish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda ishtirok etish;
- davlat va boshqaruv organlarining ochiq kollegial yig'ilishlarida ishtirok etish;
- faoliyatni O'zbekiston Respublikasining butun hududida amalga oshirish;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- davlat organlarida o'z a'zolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifoda etadi va himoya qiladi;
- davlat organlariga murojaat va so'rovlarni yuborish;
- jamoatchilik muhokamasi va jamoat muhokamalarini o'tkazish;
- jamoatchilik monitoringini o'tkazish;
- jamoatchilik fikrini o'rganish;
- normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlarini jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan ustav faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish;
- o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qidirish, olish va tarqatish;
- ommaviy axborot vositalarini tashkil etish va nashriyot faoliyatini amalga oshirish;
- o'z faoliyati to'g'risida bepul ma'lumot tarqatish;
- xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, shuningdek, tadbirkorlik tuzilmalarini yaratish;
- xayriya faoliyatini amalga oshirish;
- ko'ngilli faoliyat bilan shug'ullanish;
- sudlarda, jamoat himoyachilari va a'zolarining vakillari sifatida ishtirok etish;
- konsalting xizmatlari ko'rsatish;
- xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro dastur va loyihalarda ishtirok etish;
- uchrashuvlar, konferentsiyalar, seminarlar, treninglar va boshqa ommaviy tadbirlarni (shu jumladan onlayn tarzda) o'tkazish.

Nodavlat notijorat tashkiloti boshqa huquqlarga ham ega.

7-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining majburiyatlari

Nodavlat notijorat tashkiloti quyidagi majburiyatlarga ega:

- qonunga rioya qilish;

- o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanishi, shu jumladan moliyalashtirish manbalari to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlashi;
- Ro'yxatdan o'tkazuvchi soliq va statistika organlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobotlar taqdim etish.

Nodavlat notijorat tashkilotlari uchun ularning huquqiy holatini yomonlashtiradigan yoki ularning faoliyatini cheklovchi ushbu Kodeksda belgilanganiga nisbatan qo'shimcha majburiyatlarni belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar haqiqiy emas deb hisoblanadi va qo'llanilmaydi.

3-bob. Nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatining iqtisodiy asoslari

8-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining mulki

Nodavlat notijorat tashkiloti binolar, inshootlar, uy-joy fondi, jihoz va uskunalar, mulk, milliy va chet el valyutasidagi mablag'lar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulkka egalik qilishi yoki operativ boshqaruvida tutishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkiloti yer uchastkalariga yoki doimiy foydalanishga egalik qilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti o'z majburiyatlari uchun mol-mulk bilan javobgar bo'lib, qonun hujjatlariga muvofiq mol-mulki hisobiga qarz undirilishi mumkin.

9-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining mol-mulkini shakllantirish manbalari

1. Nodavlat notijorat tashkilotining mulki qiyidagilardan shakllanishi mumkin:
 - ustavda nazarda tutilgan bo'lsa kirish va a'zolik badallari;
 - muassislar va a'zolarning bir martalik va doimiy to'lovlari;
 - aktsiyalar, obligatsiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar va depozitlar bo'yicha olingan dividendlar (daromadlar, foizlar);
 - xayriya va ehsonlardan tushumlar;
 - tadbirkorlik yoki iqtisodiy faoliyatdan olingan daromad (foyda);
 - grantlar va loyihalar bo'yicha olingan mablag'lar va mol-mulk;
 - qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.
2. Nodavlat notijorat tashkilotining tadbirkorlik faoliyatidan olgan foydasi uning a'zolari yoki muassislari o'rtasida taqsimlanmaydi.

10-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining buxgalteriya hisobi va hisoboti

1. Nodavlat notijorat tashkiloti o'z faoliyati natijalarini nazorat qilib boradi va belgilangan tartibda statistika va soliq organlariga hisobotlarni taqdim etadi.
2. Har yili, joriy yilning 1 fevraliga qadar, o'tgan yil uchun hukumatdan mablag' olgan nodavlat notijorat tashkilotlari va ularning alohida bo'linmalari tegishli ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga o'tgan yilgi faoliyat davomida bu mablag' qanday tasarruf etilgani to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ko'rinishda hisobot taqdim etishlari shart.

II BO'LIM. Nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish qilish printsiplari va tartibi.

4-bob. Nodavlat notijorat tashkilotini tuzish printsiplari, maqsadlari va tartibi

11-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish va faoliyat ko'rsatish printsiplari

1. Nodavlat notijorat tashkilotlari quyidagi printsiplar asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi:
 - ixtiyoriylik;
 - o'zini o'zi boshqarish;
 - faoliyat doirasini erkin tanlash;
 - qonun oldida tenglik;
 - mulkiy manfaatning yo'qligi;
 - shaffoflik, ochiqlik va oshkoralik.

Ixtiyoriylik - insonning nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatida erkin ishtirok etish yoki etmaslik huquqi.

O'zini o'zi boshqarish - nodavlat notijorat tashkiloti a'zolari (qatnashchilari) o'zlarining boshqaruv organlarini mustaqil ravishda saylash va shakllantirish, nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini boshqarish va yo'nalishini belgilash huquqini ta'minlaydi.

Faoliyat doirasini erkin tanlash - nodavlat notijorat tashkilotining ro'yxatdan o'tish joyi va joylashgan manzilidan qat'i nazar, o'z faoliyat doirasini mustaqil ravishda belgilash huquqi.

Qonun oldida tenglik - nodavlat notijorat tashkilotlari huquq va majburiyatlarida tengdir.

Mulkiy manfaatning yo'qligi - nodavlat notijorat tashkiloti a'zolari (ishtirokchilari) nodavlat notijorat tashkilotining mol-mulkidagi ulushiga ega bo'lish huquqiga ega emasligi va

tashkilot muassisidan tashqari uning majburiyatlari uchun javobgar emasligi. Nodavlat notijorat tashkilotining daromadi yoki mol-mulki uning a'zolari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanmaydi.

Shaffoflik, ochiqlik, oshkoralik - nodavlat notijorat tashkilotining barcha a'zolari (qatnashchilari) o'z faoliyati to'g'risida, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ko'rilayotgan choralar to'g'risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta'minlash majburiyati. Oshkoralik deganda nodavlat notijorat tashkiloti o'z maqsadlari va faoliyati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilishini anglatadi.

2. Jismoniy shaxslarning nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishi yoki etmasligi ularning huquq va erkinliklarini cheklash uchun asos bo'lolmaydi.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlari xodimlari O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi, shuningdek ijtimoiy va tibbiy sug'urta to'g'risidagi qonunlariga bo'ysunadilar.

12-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini tuzish va faoliyatining maqsadlari

1. Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq va erkinliklarni amalga oshirish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini rivojlantirish, ularning davlat va jamoat ishlarini boshqarishda ishtirok etishi, xalqaro munosabatlarni kengaytirish, xalqlar o'rtasidagi tinchlik va do'stlikni mustahkamlash, qonunda taqiqlanmagan boshqa maqsadlarni amalga oshirish uchun tuziladi.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatlarining maqsadlari va turlarini mustaqil ravishda belgilaydilar.
3. Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umuminsoniy gumanistik qadriyatlarni emirishni, shuningdek, konstitutsiyaviy tuzumni noqonuniy o'zgartirishga, urush, zo'ravonlik va yovuzlikni targ'ib qiluvchi, ijtimoiy, irqiy, milliy va diniy adovatni qo'zg'atishga va qonun bilan taqiqlangan boshqa harakatlarni sodir etishga qaratilgan nodavlat notijorat tashkilotlarini tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

13-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllari

1. Nodavlat notijorat tashkilotlari jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond, muassasa shaklida, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlarida taqiqlanmagan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining muassislari va a'zolari jismoniy yoki yuridik shaxslar bo'lishi mumkin.

2. Nodavlat notijorat tashkilotlari o'zlarining faoliyatini muvofiqlashtirib borish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) shaklida birlashmalar tuzishi mumkin.
3. Nodavlat notijorat tashkilotlari yuridik shaxs maqomi bilan yoki yuridik shaxs maqomisiz tuzilishi mumkin.

14-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini tuzish tartibi

1. Nodavlat notijorat tashkiloti uning muassislari (a'zolari) qarori asosida tuziladi.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining uyushmalari (ittifoqlari) kamida ikkita nodavlat notijorat tashkiloti tashabbusi bilan tuzilishi mumkin.
3. Nodavlat notijorat tashkilotining tashabbuskorlari yoki muassislari ta'sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishni chaqiradilar, unda ustav qabul qilinadi hamda rahbar organlari tuziladi.
4. Nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tuzilgan deb hisoblanadi.

15-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilariga (a'zolariga) qo'yiladigan umumiy talablar

O'n sakkiz yoshga to'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxslar nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilari (a'zolari) bo'lishi mumkin.

Yoshlarning nodavlat notijorat tashkilotiga o'n to'rt yoshga to'lgan shaxslar, bolalarning nodavlat notijorat tashkilotiga esa o'n yoshga to'lgan shaxslar a'zo bo'lishi mumkin. Nodavlat notijorat tashkilotiga a'zo bo'lish, a'zolikdan mahrum bo'lish shartlari va tartibi, shu jumladan yoshiga ko'ra a'zolikdan chiqish shartlari tegishli nodavlat notijorat tashkilotlarining ustavlari bilan belgilanadi.

Rasmiy hujjatlarda u yoki bu nodavlat notijorat tashkilotiga a'zolik yoki uning faoliyatidagi ishtirokning ko'rsatilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda nodavlat notijorat tashkilotining muassislari, qatnashchilari (a'zolari) bo'lishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti muassislarining vakolatlari nodavlat notijorat tashkilotini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin tugaydi.

5-bob. Ta'sis hujjatlari

16-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlari

1. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ta'sis hujjatlari quyidagilardan iborat:
 - yuridik shaxs bo'lgan alohida bo'linma to'g'risidagi ustav yoki nizom, davlat tilida ikki nusxada;
 - Uyushmalar to'g'risidagi memorandum - uyushmalar (birlashmalar) uchun;
2. Nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlarining talablari nodavlat notijorat tashkilotining o'zi, uning muassislari (a'zolari) uchun majburiydir.
3. Nodavlat notijorat tashkiloti boshqaruv organlarining tarkibi, vakolatlari, ularni shakllantirish tartibi va vakolat muddati, ular tomonidan qaror qabul qilish tartibi ta'sis hujjatlari bilan belgilanadi.

17-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ustavi

1. Nodavlat notijorat tashkilotining ustavida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:
 - nodavlat notijorat tashkilotining nomi, maqsadi va faoliyati, uning tashkiliy-huquqiy shakli;
 - nodavlat notijorat tashkilotining tuzilmasi va boshqaruv organlari, zarurat bo'lganda uning nazorat-taftish organlari (ijtimoiy fondlar uchun - majburiy);
 - boshqaruv organlarni shakllantirish vakolatlari va tartibi, ularning vakolat muddatlari, doimiy asosda ishlaydigan boshqaruv organining joylashgan yeri;
 - a'zolikka ega bo'lgan nodavlat notijorat tashkiloti uchun a'zolikka ega bo'lish shartlari va tartibi, a'zolarining huquqlari va majburiyatlari;
 - pul mablag'lari va boshqa mulklarning shakllanish manbalari;
 - qayta tashkil etish va tugatish tartibi;

- ustavga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish tartibi;
 - mulk tugatilganda mulkdan foydalanish tartibi.
2. Alohida bo'linmalar (bo'linmalar) yaratilishini nazarda tutadigan nodavlat notijorat tashkilotlarining ustavlarida alohida bo'linmalar (bo'linmalar) tashkil etish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi bo'lishi kerak.
 3. Alohida bo'linmalarning (bo'limlarning) huquqlari va majburiyatlari, boshqaruv organlarini shakllantirish vakolatlari va tartibi, ularning vakolatlari muddatlari, doimiy boshqaruv organining joylashgan joyi, mablag'lar va boshqa mulk shakllanishi manbalari, qayta tashkil etish va tugatish tartibi, tugatilgan taqdirda mol-mulkdan foydalanish tartibi alohida bo'linma (bo'lim) nizomi bilan tartibga solinadi.
 4. Nodavlat notijorat tashkilotining ustavida uning ramzlari tavsifi bo'lishi mumkin.
- Ustavda nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatiga taalluqli, qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa qoidalar ham nazarda tutilishi mumkin.

18-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlari

Nodavlat notijorat tashkiloti bayroq, emblema, vimpel va boshqa ramzlarga ega bo'lishi mumkin. Tashkilotning ramzlari O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari, xorijiy davlatlar ramzlari, shuningdek ilgari ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarning ramzlariga o'xshamasligi kerak.

Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlari ustavga muvofiq uning boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

6-bob. Jamoat birlashmasi

19-modda. Jamoat birlashmasini tashkil etish

1. Jismoniy va yuridik shaxslar jamoat birlashmasining muassislari bo'lishi mumkin.
2. Jamoat birlashmasi noaniq yoki muayyan muddatga kamida besh nafar muomalaga layoqatli shaxsning tashabbusi bilan tuziladi.
3. Jamoat birlashmasi muassislari ta'sis yig'ilishini (konferentsiyasini) chaqiradilar, unda jamoat birlashmasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilinadi, uning ustavi tasdiqlanadi va boshqaruv organlari tuziladi.

4. Jamoat birlashmasi muassislarning vakolatlari jamoat birlashmasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin tugaydi.
5. Jamoat birlashmalari uyushmalar (birlashmalar) tuzishlari mumkin.

20-modda. Jamoat birlashmasining a'zolari

1. Jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar jamoat birlashmasiga a'zo bo'lishlari mumkin.
2. Jamoat birlashmasi a'zolari jamoat birlashmasiga berilgan mulk huquqiga, shu jumladan a'zolik badallariga egalik qilmaydi.
3. A'zolar jamoat birlashmasi majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi, jamoat birlashmasi esa a'zolarining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

7-bob. Jamoat fondi

21-modda. Fondni tashkil etish

1. Fond muassislari (muassissi) qaroriga binoan yoki vasiyatnoma bo'yicha tashkil etilishi mumkin.
2. Bir yoki bir nechta yuridik va (yoki) jismoniy shaxs fondi muassislari (muassissi) bo'lishi mumkin.

Fondi muassislari (muassissi) fond ustavini tasdiqlaydi, fond vasiylik kengashi dastlabki tarkibining a'zolarini tayinlaydi hamda ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3. Fond vasiyatnoma bo'yicha tashkil etilganida vasiyatnomada fondning maqsad va vazifalari, unga o'tkazilayotgan mol-mulk hajmi ko'rsatilgan hamda vasiyatnomani ijro etuvchi belgilangan bo'lishi kerak. Vasiyatnomani ijro etuvchi fond vasiylik kengashi dastlabki tarkibining a'zolarini, agar ular vasiyatnomada nomma-nom ko'rsatilgan bo'lmasa, tayinlaydi, shuningdek fondning tashkil etilishi bilan bog'liq boshqa harakatlarni bajaradi.

22-modda. Fondning mol-mulki

Muassislar (muassis) yoki vasiyat qiluvchi tomonidan fondga o'tkazilgan pul mablag'lari va boshqa mol-mulk fondning mulkidir.

Binolar, inshootlar, turar joylar va boshqa imoratlar, asbob-uskunalar, inventar, pul mablagʻlari, shu jumladan chet el valyutasidagi mablagʻlar, qimmatli qogʻozlar va oʻzga mol-mulk fondning mulki boʻlishi mumkin.

Fond muassislari (muassisi) yoki jamoat fondi vasiyatnoma boʻyicha tashkil etilganida vasiyatnomani ijro etuvchi fondning majburiyatlari boʻyicha javob bermaydi, fond esa muassislarning (muassisning) yoki vasiyatnomani ijro etuvchining majburiyatlari boʻyicha javob bermaydi.

Fondning mol-mulki muassislar oʻrtasida taqsimlanishi mumkin emas va undan faqat jamoat fondi ustavida belgilangan maqsadlar hamda vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Fondning mol-mulkidan garov yoki majburiyatlar bajarilishini taʼminlashning boshqa usuli sifatida foydalanilishi, shuningdek kreditlar berish uchun foydalanilishi mumkin emas

Muassislar (muassis) yoki vasiyat qiluvchi tomonidan fondga oʻtkazilgan mol-mulk fondning mulkidir. Muassislar jamoat fondi majburiyatlari boʻyicha javob bermaydi, fond esa muassislarning majburiyatlari boʻyicha javob bermaydi.

23-modda. Fondlarni tashkil etish uchun zarur boʻlgan dastlabki mablagʻlarning eng kam miqdori

Fondni tashkil etish uchun zarur boʻlgan dastlabki mablagʻlarning eng kam miqdori – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridan iborat.

Fondlarning alohida boʻlinmalari (vakolatxonalari va filiallari) uchun dastlabki mablagʻlarning eng kam miqdori mavjud boʻlishi talab etilmaydi.

Fondlarni tashkil etish uchun zarur boʻlgan dastlabki mablagʻlarning eng kam miqdori davlat roʻyxatidan oʻtkazish paytida faqat pul shaklida shakllantirilgan boʻlishi lozim.

24-modda. Fondi tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish

Fond qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan oʻz ustavida belgilangan maqsadlarga toʻgʻri keladigan doirada shugʻullanishi mumkin

25-modda. Fondning oʻziga aloqador shaxslar bilan munosabatlari

Fondga aloqador shaxslar quyidagilardir:

- fond muassislari (muassisi) yoki fond vasiyatnoma boʻyicha tashkil etilganida vasiyatnomani ijro etuvchi;
- fond muassislari (muassisi) yoki fond vasiyatnoma boʻyicha tashkil etilganida vasiyatnomani ijro etuvchi bilan yaqin qarindoshchilik yoki quda-andachilik aloqalari

bo'lgan shaxslar, shuningdek mazkur muassislarning (muassisning) yoki vasiyatnomani ijro etuvchining kreditorlari;

- fond muassislari (muassisi) bo'lmish yuridik shaxslarning ishtirokchilari, kreditorlari, shuningdek ular bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan shaxslar;
- ustav fondida (ustav kapitalida) fondning o'zi ishtirok etayotgan yuridik shaxslar va ularning xodimlari, shuningdek mazkur xodimlar bilan yaqin qarindoshchilik yoki quda-andachilik aloqalari bo'lgan shaxslar;
- fond vasiylik kengashining a'zolari, fond boshqaruvining rahbari va a'zolari, fond taftish komissiyasining a'zolari, fondning boshqa xodimlari, shuningdek ular bilan yaqin qarindoshchilik yoki quda-andachilik aloqalari bo'lgan shaxslar.

Fondning o'ziga aloqador shaxslar bilan bitimlar tuzishiga, shuningdek ularning foydasini ko'zlab boshqa harakatlar sodir etishiga vasiylik kengashining roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Fond quyidagi hollarda o'ziga aloqador shaxslar bilan bitimlar tuzishga yoki ularning foydasini ko'zlab boshqa harakatlar sodir etishga haqli emas:

- fondga aloqador shaxslar bilan bunday bitimlar tuzish yoki harakatlar sodir etish fondga aloqador bo'lmagan shaxslar bilan bo'lgandagiga nisbatan bir muncha qulay shartlarda amalga oshirilayotgan bo'lsa;
- fondga aloqador shaxs fond vasiylik kengashining a'zosi bo'lsa.

26-modda. Fondning mol-mulkidan foydalanish

Fondning mol-mulkidan fond ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Fondning ma'muriy xarajatlari fond tomonidan hisobot davrida fondni boshqarish uchun qilingan barcha xarajatlarni va birinchi navbatda uning aktivlarini asrash hamda saqlab turish uchun zarur xarajatlarni, fondning o'z ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga

o'shish uchun reklamaga sarflagan xarajatlarini, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq fond faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni va to'lovlarni o'z ichiga oladi.

Har yilgi ma'muriy xarajatlarning jami summasi, shuningdek fondning vasiylik kengashi hamda taftish komissiyasi a'zolariga haq to'lash hamda ularning o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarini kompensatsiya qilish fond barcha xarajatlari summasining o'ttiz foizidan oshmasligi kerak.

Fondning mol-mulkidan fond ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish hamda ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun foydalaniladi.

Fondning ma'muriy xarajatlari fond tomonidan hisobot davrida fondni boshqarish uchun qilingan barcha xarajatlarni va birinchi navbatda uning aktivlarini asrash hamda saqlab turish uchun zarur xarajatlarni, fondning o'z ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun reklamaga sarflagan xarajatlarini, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq fond faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni va to'lovlarni o'z ichiga oladi.

27-modda. Fondga hisobga olish va hisobot

Fond o'z faoliyati natijalari hisobini yuritadi hamda belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlari va davlat statistika organlariga hisobot taqdim etadi.

Fond har yili oldingi yildagi o'z faoliyati to'g'risida quyidagilarni o'z ichiga olgan hisobot e'lon qiladi:

- fondning hisobot davridagi faoliyati sharhini, bu faoliyat fondning ustavida belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiqligi darajasini ko'rsatgan holda;
- fondning yillik moliyaviy hisobotini, auditorlik tashkilotining xulosasini ko'rsatgan holda;
- fond olgan ixtiyoriy xayriyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- fondning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari (foydasini) to'g'risidagi ma'lumotlarni, bu daromadlarning (foydaning) kelib chiqish manbalarini alohida-alohida ko'rsatgan holda;
- xarajatlar umumiy summasini, fond faoliyatining ayrim turlari bo'yicha va ma'muriy xarajatlar bo'yicha alohida-alohida ko'rsatgan holda;
- fond ustavi va fond organlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- fondning ustavida yoki fondning vasiylik kengashi tomonidan belgilangan boshqa ma'lumotlarni.

28-modda. Fondni boshqarish

Fondning vasiylik kengashi fondning organi bo'lib, u fond faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Fond vasiylik kengashining tarkibi kamida uch kishidan iborat bo'lishi kerak. Vasiylik kengashi dastlabki tarkibining a'zolari muassislar (muassis) tomonidan yoki fond vasiyatnoma bo'yicha tashkil etilgan bo'lsa, vasiyatnomada nazarda tutilgan tartibda tayinlanadi.

Fondning vasiylik kengashini tuzish, vasiylik kengashi yig'ilishlarini chaqirish va vasiylik kengashining qarorlarini qabul qilish tartibi fond ustavida belgilanadi.

Fond vasiylik kengashining a'zolari ayni bir vaqtning o'zida fondning boshqaruvi va taftish komissiyasiga a'zo bo'lishlari mumkin emas.

Fondning ustavida fond vasiylik kengashining a'zolariga haq to'lash va ularning o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarini kompensatsiya qilish nazarda tutilishi mumkin

29-modda. Vasiylik kengashining vakolatlari

Fond vasiylik kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- fond faoliyati ustidan hamda ushbu faoliyat qonun hujjatlari va fond ustaviga, fond vasiylik kengashining qarorlariga muvofiq bo'lishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- fond ustaviga kiritiladigan o'zgartishlar va qo'shimchalarni tasdiqlash;
- fondning boshqaruvi va taftish komissiyasini tuzish;
- fondning pul mablag'lari va boshqa mol-mulkidan foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- fond budjetini tasdiqlash;
- fondning yillik balansini, yillik moliyaviy hisobotini, shu jumladan fond boshqaruvining o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash;
- fond faoliyatini navbatdan tashqari tekshirish uchun auditorlik tashkilotini jalb etish to'g'risida qaror qabul qilish;
- fond boshqaruvining fond ustavida belgilangan maqsad va vazifalarga zid bo'lgan qarorlari ijrosini to'xtatib qo'yish yoki ularni bekor qilish;
- fondni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilish.

Fondning ustavida fond vasiylik kengashining vakolatlariga boshqa masalalar ham kiritilishi mumkin.

Fond vasiylik kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal etish uchun fondning boshqaruvi yoki taftish komissiyasiga o'tkazilishi mumkin emas.

Fondning vasiylik kengashi fondning boshqa organlaridan fond faoliyatiga taalluqli hujjatlarni talab qilish va olishga haqli.

Fond vasiylik kengashining qarorlari fondning boshqaruvi va boshqa organlari, fond xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

30-modda. Fond kengashi

Fond boshqaruvi fondning ijroiya organidir. Fond boshqaruvining tarkibi fond vasiylik kengashi tomonidan shakllantiriladi.

Fond boshqaruvining rahbari va a'zolari fond vasiylik kengashi va taftish komissiyasining a'zolari bo'lishi mumkin emas.

Fond boshqaruvi yiliga kamida bir marta o'z faoliyati to'g'risida vasiylik kengashiga hisobot taqdim etadi.

31-modda. Fond boshqaruvining vakolatlari

Fond boshqaruvining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- fondning joriy faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish;
- fond tomonidan tashkil etilgan tadbirkorlik tuzilmalari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- fond vasiylik kengashi bilan kelishuv asosida fond xodimlarining shtat jadvali va ish haqi miqdorini belgilash;
- fond vasiylik kengashi bilan kelishuv asosida vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish hamda ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- fondning vakolatxonalari va filiallari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularning rahbarlarini tayinlash.

Fond ustavi fond boshqaruvining vakolatlariga boshqa masalalarni ham kiritishi mumkin

32-modda. Fond faoliyati ustidan nazorat

Fond har yili o'z faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazadi.

Auditorlik tashkilotini fondning vasiylik kengashi tanlaydi.

Fondga aloqador shaxslar fond faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishga auditor sifatida jalb etilishi mumkin emas.

8-bob. Muassasalar

33-modda. Muassasalar

- 1. Muassasa bu ijtimoiy, madaniy va boshqa notijorat tushdagi vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan nodavlat notijorat tashkiloti bo'lib, to'liq yoki qisman muassis, shuningdek grantlar va homiylik mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy to'lovlari (xayr-ehsonlari) hisobiga moliyalashtiriladi. Muassasa o'z mol-mulkiga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq operativ boshqarish huquqi asosida egalik qiladi.**
- 2. Muassasa o'z majburiyatlari uchun o'z ixtiyorida bo'lgan mablag'lar bilan javobgardir. Agar ular yetarli bo'lmasa, muassasaning majburiyatlari uchun yordamchi javobgarlik uning muassissi tomonidan amalga oshiriladi.**

34-modda. Muassasani tashkil etish to'g'risidagi qaror

Muassasa muassisning qarori bilan tashkil etilgan bo'lib, unga quyidagi ma'lumotlar kiritilishi kerak:

- muassasaning nomi, yuridik manzili;
- muassislarning nomi, yuridik manzili, davlat ro'yxatiga olingan joyi, sanasi va raqami, aloqa telefonlari ko'rsatilgan ro'yxati;
- mol-mulkning muassis tomonidan beriladigan naqd va (yoki) boshqa shakldagi mulkning umumiy qiymati va uni berish tartibi;
- muassasa ustavini tasdiqlash to'g'risida ma'lumot;
- muassasa boshqaruv kengashi va muassasaning kuzatuv kengashi a'zolarining ismlari va manzillari.

35-modda. Muassasaning boshqaruv organlari

Muassasa boshqaruv organlarining tuzilish tartibi va vakolatlari, muassis va muassasa o'rtasidagi munosabatlar muassasa ustavida belgilanadi.

9-bob. Nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish

36-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi

1. Yuridik shaxs maqomi bilan faoliyat yuritmoqchi bo'lgan nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tishi kerak. Davlat ro'yxatidan o'tkazish xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi.

2. Nodavlat notijorat tashkilotlarini bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati va davlat statistika organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazish:

- xorijiy, respublika, (kamida uchta hududiy bo'linmada alohida bo'limalarga ega tashkilotlar) va viloyatlararo nodavlat notijorat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatlari agentligi tomonidan davlat ro'yxatiga olinadi;
- tegishli hududlarda joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlarini, shuningdek yuridik shaxs bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida bo'linmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining davlat xizmatlari agentliklari tomonidan davlat ro'yxatiga olinadi.

3. Nodavlat notijorat tashkilotlari, qanday turdaligidan qat'iy nazar, bir xil nomda atalsa, ularni davlat ro'yxatiga olinishiga yo'l qo'yilmaydi.

37-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar

1. Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar:
 - nodavlat notijorat tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ariza. Ariza ro'yxatdan o'tkazuvchi organga ta'sis syezdi (konferensiyasi) yoki umumiy yig'ilishi o'tkazilgan yoki qaror qabul qilingan (muassasalar uchun) kundan bir oy ichida taqdim etiladi;
 - nodavlat notijorat tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan ikki nusxada davlat tilidagi ustav (nodavlat notijorat tashkilotining xohishiga binoan, qo'shimcha ravishda ustavni boshqa qulay tilda taqdim etish ham mumkin);
 - ta'sis shartnomasi - nodavlat notijorat tashkilotlarining uyushmalari (ittifoqlari), shuningdek fonldar uchun (agar muassislar soni birdan ko'p bo'lsa);
 - nodavlat notijorat tashkilotini ta'sis etish s'ezdi (konferentsiyasi) yoki umumiy yig'ilishining bayonnomalari;
 - nodavlat notijorat tashkilotining tashabbuskorlari yoki muassislari to'g'risidagi ma'lumotlar, jismoniy shaxslar uchun - familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, yashash joyi; yuridik shaxslar uchun - joylashgan joyi va pochta manzili, ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
 - nodavlat notijorat tashkilotining yuridik manzili;

- ijtimoiy fondlar uchun - boshlang'ich pul mablag'lari shakllanganligini tasdiqlovchi hujjat (vaqtinchalik jamg'arish hisoblariga mablag'alr o'tkazilganligi to'g'risida bank to'lov hujjati);
 - Ixtiyoriy ravishda tuzilgan jamoat fondlari uchun notarial tasdiqlangan vasiyatnomaning nusxasi.
2. Nodavlat notijorat tashkilotining alohida bo'linmasini (bo'limini) davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar:
- alohida bo'linmani boshqarayotgan shaxs tomonidan imzolangan ariza;
 - bosh nodavlat notijorat tashkilotining tegishli mintaqaviy bo'linma (bo'lim) tashkil etish to'g'risidagi qarori;
 - alohida bo'linma (bo'lim) to'g'risidagi nizom, davlat tilida ikki nusxada;
 - bosh nodavlat notijorat tashkilotining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;
 - mulkdor yoki ijaraga beruvchining tegishli binoni nodavlat notijorat tashkilotining alohida bo'linmasining (bo'limining) ofisi va pochta manzilini ko'rsatishi uchun taqdim etishi to'g'risidagi rozilik xati.

Alohida bo'linmani (bo'limni) ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab etti ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

3. Qayta tashkil etish natijasida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar:

Birlashish, bo'linish, ajralib chiqish yoki o'zgarish shaklida qayta tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlari qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- qayta tashkil etilayotgan tashkilotlarga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlar yozma ravishda xabardor qilinganligining va qayta tashkil etish to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinganligining tasdiqnomasi;
- qayta tashkil etilayotgan tashkilotlarning barcha kreditorlari va qarzдорlariga nisbatan barcha majburiyatlari, shu jumladan taraflar nizolashayotgan majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorislik to'g'risidagi qoidalar ko'rsatilgan topshirish dalolatnomasi (qo'shib yuborish va o'zgartirishda) yoki taqsimlash balansi (bo'lish va ajratib chiqarishda);
- davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasi, shuningdek ichki ishlar organlarining tashkilot muhri va shtampi yo'q qilib tashlanganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi (qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirishda).

4. Xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarning vakolatxonalari va filiallarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar:

- bosh tashkilot ustavi hamda ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnomaning belgilangan tartibda legallashtirilgan yoki apostil qo'yilgan nusxalari;
- bosh tashkilotning O'zbekiston Respublikasida vakolatxona ochish yoki filial tashkil etish to'g'risidagi qarori (bayonnomasi), unda vakolatxona ochishga (filial tashkil etishga), uning nizomini tasdiqlashga, rahbarini (rahbarlarini) tayinlashga oid belgilangan tartibda legallashtirilgan yoki apostil qo'yilgan ma'lumotlar bo'lishi kerak;
- vakolatxona yoki filial to'g'risidagi o'zbek va rus tillaridagi nizom (ustav);
- bosh tashkilot tomonidan vakolatxona yoki filial rahbariga berilgan belgilangan tartibda legallashtirilgan yoki apostil qo'yilgan ishonchnoma;
- bosh tashkilot faoliyati to'g'risida belgilangan tartibda legallashtirilgan yoki apostil qo'yilgan axborot;
- ijaraga beruvchining tegishli binolarni vakolatxona yoki filialga berish to'g'risidagi rozilik xati;

5. Davlat ro'yxatidan o'tish, ta'sis hujjatlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish, nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida bo'linmalarini (filiallarini) ro'yxatdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati to'liqdir. Ushbu Kodeksda ko'rsatilmagan hujjatlarni talab qilish taqiqlanadi.

6. Nodavlat notijorat tashkilotlarini va ularning alohida bo'linmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish elektron shaklda amalga oshiriladi.

48-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma va ta'sis hujjatlarining dublikatlarini berish tartibi

1. Nodavlat notijorat tashkiloti, ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, nodavlat notijorat tashkilotining boshqaruv organi tegishli qaror qabul qilganidan keyin bir oy ichida ro'yxatdan o'tkazuvchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- tashkilot rahbarining imzosi bilan tasdiqlangan ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ariza;

- nodavlat notijorat tashkilotining vakolatli boshqaruv organining ta'sis hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarori (qaror, bayonnoma);
- tashkilot rahbarining imzosi bilan tasdiqlangan ta'sis hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar matni yoki ta'sis hujjatlarining yangi tahriri ikki nusxada;
- davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasi - ism o'zgartirilgan taqdirda.

2. Davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnoma yoxud ta'sis hujjatlari yo'qolganda yoki ular yaroqsiz holga kelganda NNTning arizasiga binoan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan ularning dublikatlari beriladi.

Dublikat olish uchun arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- «topilmalar stoli»dan ma'lumotnoma (davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnoma yoxud ta'sis hujjatlari yo'qolganda);
- davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnomaning yoxud ta'sis hujjatlarining asl nusxasi (davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnoma yoki ta'sis hujjatlari yaroqsiz holga kelganda);
- davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnomaning haqiqiy emasligi to'g'risida davriy matbuot nashrida berilgan e'lon (davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnoma yo'qolganda);
- guvohnoma dublikati berilganligi uchun belgilangan miqdorda to'lov to'langanligi to'g'risida bankning to'lov hujjati (davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma yo'qolganda yoxud yaroqsiz holga kelganda)).

3. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning yoxud ta'sis hujjatlarining dublikatini berish to'g'risidagi ariza o'n ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi

39-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish yoki qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish, shuningdek ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish

1. Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish, shuningdek ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlar elektron ko'rinishda taqdim etiladi va ular taqdim etilgan kundan boshlab etti ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

2. Ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida;
- davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganda, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida nodavlat notijorat tashkilotiga quyidagilar taqdim etiladi:

- belgilangan shakldagi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma;
- "Ro'yxatdan o'tkazilgan" yozuvi qayd etilgan, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ muhri bilan tasdiqlangan nodavlat notijorat tashkilotining ustavi.

3. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida davlat reestridan nodavlat notijorat tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotlarni nodavlat notijorat tashkiloti joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga va davlat statistika organlariga taqdim etadilar.

Nodavlat notijorat tashkilotini ro'yxatdan o'tkazish qonunga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotini jalb qilmasdan davlat soliq xizmati va davlat statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari (statistika kodlarini, STIRni berish) tugallangandan keyin davlat ro'yxatidan o'tkazilgan nodavlat notijorat tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan tegishli ravishda Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat reestriga, Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan alohida bo'linmalarining davlat reestriga yoki Xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari davlat reestriga kiritiladi.

40-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish uchun asoslari

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi holatlarda rad etilishi mumkin:

- nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlari O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishni, suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga putur yetkazishni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kamsitishni, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qilishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa;
- hujjatlar ro'yxat bo'yicha to'liq taqdim etilmagan bo'lsa;

- hujjatlar ustav qabul qilingan paytdan boshlab ikki oylik muddat o'tganidan keyin taqdim etilgan bo'lsa;
- ilgari xuddi shu nomdagi nodavlat notijorat tashkiloti ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa;
- nodavlat notijorat tashkilotining nomi yoki ramziy belgilari ma'naviyatga, fuqarolarning milliy va diniy tuyg'ulariga daxl qilsa;
- nodavlat notijorat tashkilotining ta'sis hujjatlarida harbiylashtirilgan birlashmalar tuzish nazarda tutilgan bo'lsa.

Grammatik, stilistik va boshqa texnik xatolar, hujjatlar matnidagi xatolar sababli ro'yxatdan o'tkazishni rad etish taqiqlanadi.

Hujjatlarni tayyorlashda qo'yilgan xatolar va texnik kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ular ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimlari yordami bilan ular topilgan kundan boshlab uch kun ichida bartaraf etiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotini tuzish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan uni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi..

Ustavni ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda, ariza beruvchiga ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun ichida taqdim etilgan ta'sis hujjatlari qonunchilikning qaysi qoida va moddalariga zid ekanligi yozma ravishda batafsil bayon qilinadi.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishning rad etilishi rad etishning asoslari bartaraf etilgan taqdirda davlat ro'yxatidan o'tkazishga hujjatlarni takroran berish uchun to'siq bo'lmaydi.

Takroriy murojaatni ko'rib chiqishda ariza beruvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faqat buzilish aniqlangan hujjatlarni taqdim etadi.

41-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish

Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati u O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarini buzgan taqdirda sud tomonidan to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ko'rsatilgan qoidabuzarliklar to'g'risida mazkur nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organlariga taqdimnoma kiritadi hamda bu qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddatini belgilaydi. Agar bu qoidabuzarliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati ro'yxatdan o'tkazuvchi organ taqdimnomasi asosida sudning qarori bilan uch oygacha bo'lgan muddatga to'xtatib qo'yiladi.

42-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini to'xtatib qo'yish oqibatlari

Nodavlat notijorat tashkilotining faoliyati sudning qarori bilan belgilangan muddatga to'xtatib qo'yilgan taqdirda uning ommaviy axborot vositalari muassisi tariqasidagi huquqlari to'xtatib qo'yiladi, unga ommaviy tadbirlar tashkil etish, bank hisobidan foydalanish taqiqlanadi, xo'jalik faoliyati, mehnat shartnomalari, o'z harakatlari (harakatsizligi) oqibatida yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash va jarimalar to'lashga doir xarajatlar bundan mustasno.

Agar nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatini to'xtatib qo'yishning sud tomonidan belgilangan muddati mobaynida u o'z faoliyatining to'xtatilishiga sabab bo'lgan qoidabuzarlikni bartaraf etsa, mazkur muddat tugaganidan so'ng nodavlat notijorat tashkiloti o'z faoliyatini qaytadan boshlashi mumkin. Nodavlat notijorat tashkiloti ko'rsatilgan qoidabuzarlikni bartaraf etmagan taqdirda uning faoliyatini to'xtatib qo'yish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritgan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bu tashkilotni tugatish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritishi mumkin.

10-bob. Nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish va tugatish

43-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish

Nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish uning yuqori organi qaroriga binoan birlashish, qo'shilish, bo'linish, ajralib chiqish va o'zgartirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

44-modda. Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish

Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish uning yuqori organi qaroriga binoan yoki sud tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat notijorat tashkilotining yuqori organi yoki nodavlat notijorat tashkilotini tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan organ Tugatish komissiyasini tayinlaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotining yuqori organi yoki sud qarori bilan tugatilgan nodavlat notijorat tashkilotining mol-mulki kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin uning ustavida ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalaniladi.

11-bob. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish

45-modda. Umumiy qoidalar

Nodavlat notijorat tashkiloti bayroq, emblema, vimpel va boshqa ramziy belgilarga ega bo'lishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotining ramziy belgilari ta'sis hujjatlariga muvofiq uning rahbar organi tomonidan tasdiqlanadi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Ramziy belgilarni ishlatish tartibi tegishli nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan ramziy belgilar to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

Alohida bo'linmalar (bo'limlar) o'z faoliyatlarida bosh nodavlat notijorat tashkilotlarining ramziy belgilaridan foydalanadilar.

46-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish tartibi

1. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramziy belgilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish:
 - xorijiy, respublika, (kamida uchta hududiy bo'linmada alohida bo'limlarga ega tashkilotlar) va viloyatlararo nodavlat notijorat tashkilotlari, hamda xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari O'zbekiston Respublikasi Davlat xizmatlari agentligi tomonidan davlat ro'yxatiga olinadi;
 - faoliyati viloyat, tuman, shahar, qishloq va ovul hududida joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining davlat xizmatlari agentliklari tomonidan davlat ro'yxatiga olinadi.
2. Aynan bir xil yoki adashtirib yuboradigan darajada o'xshash ramzga ega bo'lgan ikki va undan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti ramzni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ariza bilan murojaat qilgan taqdirda hammadan oldin ariza bergan nodavlat notijorat tashkiloti ro'yxatdan o'tkazish uchun ustunlik huquqiga ega bo'ladi.

47-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar va ularni ko'rib chiqish tartibi

1. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etiladigan hujjatlar:
 - nodavlat notijorat tashkiloti rahbari imzolagan ramzlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ariza;
 - nodavlat notijorat tashkiloti rahbar organi tomonidan tasdiqlangan ramzning nizomi;
 - nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi;
 - ikki nusxada ramzning namunasi va tavsifi;
 - nodavlat notijorat tashkiloti rahbar organining ramzni tasdiqlash to'g'risidagi qarori;
 - yig'im to'langanligini tasdiqlovchi bank to'lov hujjati.
2. Nodavlat notijorat tashkiloti ramzini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar ular taqdim etilgan kundan boshlab bir oy mobaynida ko'rib chiqiladi.

48-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish natijalari

1. Ramzlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazuvchi organ quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:
 - ramzlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida;
 - ramzlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganda ariza beruvchiga:

- ramzining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma;
- «ro'yxatdan o'tkazildi» belgisi qayd etilgan va ro'yxatdan o'tkazuvchi organ muhri bilan tasdiqlangan bir nusxadan ramz namunasi va uning tavsifi beriladi.

Nodavlat notijorat tashkiloti ramzi to'g'risidagi ma'lumotlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan Nodavlat notijorat tashkiloti ramzlarining davlat reestriga kiritiladi.

2. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi hollarda rad etilish mumkin:
 - ramzni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun talab etilgan hujjatlar to'liq bo'lmagan hajmda ilova qilingan bo'lsa;
 - ramz O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i yoki gerbi bilan o'xshash bo'lsa;
 - ramz sifatida faoliyati O'zbekiston Respublikasi hududida taqiqlangan tashkilotlarning emblemasidan yoki ramzlarining boshqa turlaridan foydalanilgan bo'lsa.
3. Ramzning maqsadga muvofiq emasligi sababli uni davlat ro'yxatidan o'tkazishning rad etilishiga yo'l qo'yilmaydi.
4. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ramzni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risida, rad etishning aniq sabablarini ko'rsatgan holda asoslangan qaror qabul qiladi.
5. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror ariza beruvchilarga qaror qabul qilingandan keyin uch kun mobaynida yozma ravishda ma'lum qilinadi. Ariza beruvchilarga ularning uch oy muddatda yig'imni qaytarish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilish yoxud rad etish sabablari bartaraf etilgandan keyin nodavlat notijorat tashkilotining ramzini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida takroran ariza berish huquqi tushuntiriladi.
6. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning nodavlat notijorat tashkilotining ramzini davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qarori yuzasidan belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

49-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish va ramzlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning dublikatini berish

1. Nodavlat notijorat tashkilotining ramziga va (yoki) uning tavsifiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotining nomi

o'zgarishi bilan bog'liq holda NNT qayta ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda ramz qayta ro'yxatdan o'tkaziladi.

2. Nodavlat notijorat tashkilotining rahbar organi tomonidan ramzga va (yoki) uning tavsifiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin, shuningdek nomi o'zgarishi bilan bog'liq holda nodavlat notijorat tashkilotining qayta ro'yxatdan o'tkazilganda, ramzni qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun bir oy mobaynida ro'yxatdan o'tkazuvchi organga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:
 - ramzini qayta ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza;
 - ramzga va (yoki) uning tavsifiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror;
 - ikki nusxada nodavlat notijorat tashkiloti ramzining yangi namunasi va uning tavsifi;
 - ramz davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasi;
 - yig'im to'langanligini tasdiqlovchi bank to'lov hujjati.
3. Ramzni qayta ro'yxatdan o'tkazish nodavlat notijorat tashkilotining ramzini davlat ro'yxatidan o'tkazishdagi kabi tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.
4. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzini qayta ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bir ish kuni mobaynida Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlarining davlat reestriga tegishli yozuvni kiritadi va ariza beruvchiga bir nusxadan «ro'yxatdan o'tkazilgan» belgisi qo'yilgan va ro'yxatdan o'tkazuvchi organning muhri bilan tasdiqlangan ramzning yangi namunasi va uning tavsifi beriladi.
5. Agar ramz tavsifiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar nodavlat notijorat tashkilotining ramzining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomada nazarda tutilgan qisqacha tavsifning o'zgarishiga olib kelsa, ariza beruvchiga ramzning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida yangi guvohnoma beriladi. Nomi o'zgarishi bilan bog'liq holda nodavlat notijorat tashkilotining qayta ro'yxatdan o'tkazilishi munosabati bilan ramz qayta ro'yxatdan o'tkazilganda ham ramzning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida yangi guvohnoma beriladi. Boshqa hollarda ariza beruvchiga nodavlat notijorat tashkilotining ramzining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasi qaytariladi.

50-modda. Nodavlat notijorat tashkilotining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish dublikatini berish tartibi

1. Ramzning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, ramzning namunasi va uning tavsifi yo'qolganda yoki yaroqsiz holga kelganda nodavlat notijorat tashkilotining arizasi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan ularning dublikatlari beriladi.

Dublikat olish uchun berilgan arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- «topilmalar stoli»dan ma'lumotnoma (ramzning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, nodavlat notijorat tashkiloti ramzining namunasi va uning tavsifi yo'qolganda);
 - nodavlat notijorat tashkiloti ramzining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning asl nusxasi, ramzning namunasi va uning tavsifi (ular yaroqsiz holga kelganda);
 - yo'qolgan nodavlat notijorat tashkiloti ramzining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning haqiqiy emasligi haqida davriy matbuot nashrida berilgan e'lon;
 - dublikat berilganligi uchun belgilangan miqdorda yig'im to'langanligi to'g'risida bank to'lov hujjati.
2. Nodavlat notijorat tashkiloti ramzining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, ramzning namunasi va uning tavsifi dublikatini berish to'g'risidagi ariza o'n ish kuni mobaynida ko'rib chiqiladi.
 3. Ro'yxatdan o'tkazilmagan nodavlat notijorat tashkilotilari ramzlaridan foydalanish taqiqlanadi.

Fondni tashkil etish uchun zarur bo'lgan dastlabki mablag'larning eng kam miqdori – bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridan iborat.

Fondlarning alohida bo'linmalari (vakolatxonalar va filiallari) uchun dastlabki mablag'larning eng kam miqdori mavjud bo'lishi talab etilmaydi.

51-modda. Davlat bojlarining miqdori

1. Nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, qayta ro'yxatdan o'tkazilgan yoki dublikat berilganidan keyin etti ish kuni mobaynida davlat bojini quyidagi miqdorda to'laydi:

- 12,5 bazaviy hisoblash miqdori - xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari uchun;
- uch bazaviy hisoblash miqdori - respublika va mintaqalararo nodavlat notijorat tashkilotlari uchun;
- ikki bazaviy hisoblash miqdori - asosiy faoliyati viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq va ovul hududida joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlari uchun;
- nogironlar, faxriylar, ayollar, bolalar nodavlat notijorat tashkilotlari ustavlarini ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji bir bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizi miqdorida undiriladi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji bir bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida undiriladi;
- nodavlat notijorat tashkilotidan davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma dublikati olish uchun bir bazaviy hisoblash miqdorida undiriladi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarning alohida bo'linmalarini (filiallarini) davlat ro'yxatidan o'tkazish va ro'yxatdan o'tkazish uchun davlat boji undirilmaydi.

2. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun quyidagi miqdorlarda yig'im olinadi:

- uch bazaviy hisoblash miqdori - xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, xalqaro va xorijiy nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari uchun;
- ikki bazaviy hisoblash miqdori - respublika, mintaqalararo nodavlat notijorat tashkilotlari uchun;
- bir bazaviy hisoblash miqdori - faoliyati bir viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq va ovul hududida joylashgan nodavlat notijorat tashkilotlari uchun;
- nogironlar, faxriylar, ayollar va bolalarning nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun bir bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida yig'il undiriladi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun bir bazaviy hisoblash miqdorida yig'il undiriladi;
- nodavlat notijorat tashkilotining ramzlarini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma dublikati olish uchun bir bazaviy hisoblash miqdorida yig'im undiriladi.

III BO'LIM. NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING DAVLAT ORGANLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI

12-bob. Davlat tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining ta'minlash

52-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlarini ta'minlash

1. Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi.
2. Davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi

53-modda. Nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlari

1. Nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlariga taalluqli masalalar davlat organlari va tashkilotlari tomonidan majburiy ravishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki bilan hal etiladi.
2. Davlat har qanday ko'rib chiqish bosqichida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va kontseptsiyalarini ishlab chiqishda nodavlat notijorat tashkilotlarining to'sqinliksiz ishtiroki uchun shart-sharoit yaratishi va tartibini ishlab chiqishi shart.

54-modda. Faoliyat erkinligi kafolatlari

Nodavlat notijorat tashkilotlari respublika va chet ellarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan va nodavlat notijorat tashkilotining ustavida ko'zda tutilgan maqsadlarga zid bo'lmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlariga har qanday cheklovlar faqat qonun bilan belgilanishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari qayerda ro'yxatdan o'tgan va joylashgan joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab faoliyat yuritish huquqiga ega.

Davlat organlari nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy va siyosiy hayotdagi ishtirokini rag'batlantiradi va yordam beradi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan mustaqildir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga to'sqinlik qilish taqiqlanadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti muassislar va tashkilot a'zolari o'rtasida olingan daromadlarni taqsimlamasdan tadbirkorlik, iqtisodiy, shu jumladan ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Qonunda belgilangan hollarda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ayrim turlari litsenziya asosida amalga oshiriladi.

55-modda. Axborotdan foydalanish kafolatlari

1. Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining qonun hujjatlariga muvofiq axborotni izlash, olish, tadqiq etish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlashga bo'lgan huquqini ta'minlaydi.
2. Axborotdan foydalanish qonun hujjatlari va tegishli materiallarni nashr etish va tarqatish, shuningdek ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish maqsadida zarur axborotni olish uchun davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga so'rov bilan murojaat qilish huquqining nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ro'yobga chiqarilishi orqali ta'minlanadi.
3. Nodavlat notijorat tashkilotining so'roviga iloji boricha qisqa muddatda, so'rov olingan sanadan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay javob qaytarilishi kerak. Qo'shimcha o'rganish va (yoki) tekshirish yoki qo'shimcha hujjatlarni so'rash zarur bo'lganda esa javob o'n besh kun ichida berilishi kerak.
4. Davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari nodavlat notijorat tashkilotlariga bu tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor qonun hujjatlari, hujjatlar, qarorlar hamda boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi shart.
5. Nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor axborot bepul beriladi.

56-modda. Mulk huquqi kafolatlari

Nodavlat notijorat tashkilotlarining mulki daxlsiz va qonun bilan muhofaza qilinadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining mol-mulki natsionalizatsiya, rekvizitsiya va musodara qilinmaydi.M

Mulk huquqini bekor qiladigan qonun hujjati yoki ijro etuvchi hokimiyatning qarori qabul qilingan bo'lsa, mulk egasiga (nodavlat notijorat tashkilotiga) yetkazilgan zarar tegishli normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan davlat organi tomonidan to'liq qoplanadi.

57-modda. Ishchanlik obro'sini himoya qilish

Nodavlat notijorat tashkiloti o'zining ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan raddiya berilishini sud tartibida talab qilishga haqli.

